

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I.Muxamedov**



« _____ » 2025 yil

**11.00.01 – TABIIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI BO‘YICHA OLIY
TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIM INSTITUTIGA KIRISH UCHUN
IXTISOSLIK FANIDAN
DASTUR**

Chirchiq – 2025

Kirish

Ushbu dastur tabiiy geografiya fani predmeti, tarixi, maqsadi va vazifalari, fanning tadqiqot uslublari, obyektlari, hozirgi zamon tabiiy geografiyaning asosiy metodologik aspektlari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda ekologik muammolarni yechishdagi o'rnini o'rganishda nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda tabiiy geografiya fani sohasida jahon miqyosida erishilgan yangi ilmiy ishlanmalar, nazariy-metodologik qarashlar va ayni paytda butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimizda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan global hamda regional muammolar, ularning yechimiga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar ham nazarda tutildi. Tadqiqotchi tabiiy geografiyaning umumiy tabiiy geografiya, landshaftshunoslik, geotizimlar haqida ta'limot, geomorfologiya, biogeografiya, tuproqlar geografiyasi, tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari, tabiiy geografiyaning asosiy muammolari, paleogeografiya, landshaftlar geofizikasi va geokimyosi kabi fundamental yo'nalishlaridan hamda zamonaviy landshaft tadqiqotlari metodikasidan puxta bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Ayni paytda tadqiqotchi tabiiy geografiyaning amaliyotga tatbiqi bilan shug'ullanuvchi amaliy geografiya, meliorativ geografiya, amaliy landshaftshunoslik kabi sohalaridan ham chuqur bilimga ega bo'lishi lozim.

ASOSIY QISM

Tabiiy geografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Geografik qobiq va u bilan bog'liq geotizimlar tabiiy geografiyaning obyekti ekanligi. Geografik qobiqning geosferalar tizimidan iborat ekanligi. Geotizimlarning bir-biriga ta'siri va biri ikkinchisi bilan bog'langanligi. Geotizimlarning hududiy differentsiatsiyasi va integratsiyasining qonuniyatlari.

Tabiiy geografiyaning asosiy vazifalari. Geografik qobiqning bir butun va har tomonlama o'rganilishi, uning geografik muhitni o'rganishdagi ishtiroki. Geotizimlarning differentsiatsiyasi va integratsiyasidagi omil va qonuniyatlarni o'rganish. Geosferalarning o'zaro aloqadorligini o'rganish, ularning geografik qobiqning shakllanishdagi ahamiyati (butunligi va o'sish bo'laklarining o'zaro munosabati). Har xil darajadagi geotizimlar (tabiiy hududiy, tabiiy-texnik va akval komplekslar), ularning o'zaro nisbatlari va bir-biriga ta'siri. Har xil darajadagi tabiiy-hududiy, tabiiy-texnik geotizimlarda modda va energiya almashinuv jarayonlarini o'rganish, ularning o'zaro munobati, ta'siri. Geotizimlar dinamikasi, tabiiy komponentlarning o'zaro aloqadorligi (modda va energiya almashinishi, ritmiklik, sikllik).

Geografik qobiqning vujudga kelish bosqichlarini tadqiq etish; abiolytosfera-biosfera-noosfera. Tabiiy va texnik tizimlarda o'zaro ta'sir jarayonlarini o'rganish. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini hal qilishda qatnashish. Tabiiy-geografik tadqiqotlar uslublari yaratish. Tadqiqot mobaynida foydalanadigan tushuncha va terminlarni ishlab chiqish.

Fanning shakllanishi va taraqqiyot tarixi

Tabiiy geografiyaning tarixi. Tabiiy geografiyaning ob'ekti va predmeti haqidagi tasavvurlarning taraqqiyoti. Tabiiy geografiya tizimidagi fanlarning differensiatsiyasi va integratsiyasining vujudga kelishi. Amaliy va ilmiy vazifalari, evolyutsiyasi (turli tipdagi va darajadagi geotizimlarni tasniflash va tahlil qilish). Kompleks tabiiy geografiya uslublarning shakllanishi va taraqqiyot tarixi. A.Getner, A.Gumboldt, Z.Passarge, V.V.Dokuchayev, L.S.Berg, B.B.Polinov, A.A.Grigoryev, S.V.Kalesnik, I.P.Gerasimov, K.K.Markov, B.A.Fedorovich va boshqa olimlar ishlarining fanning taraqqiyotidagi ahamiyati. Mavjud ilmiy maktablarning kompleks tabiiy geografiyaning taraqqiyotidagi o'rni.

Geografiya fanlari sistemasida tabiiy geografiyaning o'rni. Tabiiy geografiya fanlarining hozirgi strukturasi. Kompleks tabiiy geografiyaning ijtimoiy, texnik va tabiiy fanlar (biologiya, ekologiya, fizika, kimyo) bilan aloqasi. Tabiiy geografiyaning fan sifatida taraqqiyot darajasi. Fundamental va amaliy tadqiqotlarning taraqqiyot tendensiyasi. Chet ellarda kompleks tabiiy geografiyaning taraqqiyoti.

Tabiiy geografiyaning nazariy asoslari

Geografik qobiq haqidagi ta'limot. Geografik qobiqning tuzilishi. Uning hududiy differensiatsiylanish va integratsiylanish qonuniyatlari. Geografik qobiqning taraqqiyot tarixi va tendensiyasi.

Geotizimlar haqidagi ta'limot. "Geokompleks" va "geotizim" haqidagi tushunchalar ma'nosining evolyutsiyasi. Geotizimlar ierarxiyasi, geotizimlarning turlari. Har xil darajadagi geotizimlarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga munosabati. Geotizimlar modeli va ularning evolyutsiyasi.

Zonallik haqida ta'limot. Geografik qobiqning zonallanish omillari. Turli materiklarda kenglik va gorizontal zonallikning namoyon bo'lishi. Vertikal va balandlik zonallik (mintaqalik). Geografik qobiqning zonal va nozonal omillar differensiasining aloqasi.

Geografik qobiqning regional differensiatsiyasi haqidagi ta'limot (tabiiy geografik rayonlashtirish). Turli tipdagi va darajadagi geotizimlarning regional shakllanish omillari. Rayonlashtirish – geografik qobiq hududiy differensiatsiyasining bir shakli ekanligi. Kompleks va tarmoq rayonlashtirishning bog'lanishi. Ilmiy va amaliy rayonlashtirish.

Tabiiy hududiy komplekslar haqida ta'limot (landshaftshunoslik). Landshaftlar klassifikatsiyasi va tipologiyasi. Yer sharining landshaft strukturasi. Tekislik va tog' landshaftlarining xususiyatlari.

Landshaftlar geofizikasi. Geotizimlar va geografik qobiq haqidagi ta'limotning rivojlanishida fizik tasavvurlarning (saqlanish qonuni va boshqalar) roli. Landshaftlarning energetik (geofizik) tizimi haqidagi tasavvur. Geografik qobiq va geotizimlarda moddaning berk va ochiq zanjirlarining o'zgartirilishi.

Balanslar usuli. Moddalar almashinishining jadalligi. Geotizimlar evolyutsiyasida biogen moddalarning sikllik xarakterda ekanligi. Modda va energiya almashinuvida zonallik va provinsial farqlar. Grigoryev-Budikolarning davriy zonallik qonuni. Modda va energiya balansida antropogen o'zgarishlar. Landshaftlarning optik xususiyatlari va ularning geosistemalarni o'rganishdagi roli.

Landshaftlar geokimyosi. Geokimyoviy landshaft tushunchasi. Geografik qobiq va geotizimlarda kimyoviy elementlarning aylanma harakati. Kimyoviy harakatlarning migratsion xususiyatlarini aniqlovchi omillar, migratsiyaning turlari va harakati. Geokimyoviy barerlarning turlari. Geokimyoviy landshaft, birliklar, tizimlar, ularning klassifikatsiyasi. Landshaftlar asosiy turlarining geokimyosi va tabiatni muhofaza qilish muammolari.

Jamiyat va tabiat munosabatlarining geografik jihatlar. Jamiyat va tabiatning bir-biriga munosabatining mohiyati va mexanizmi. Geotizimlarning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi. Inson va uning faoliyatiga tabiatdagi o'zgarishlarning ta'siri. Antropogen landshaftlarning shakllanishi. Tabiiy-texnik geotizimlar.

Maxsus sohaga oid zamonaviy usullar

Tizimli yondashish. Geotizimlarni o'rganishda tizimli yondashish, modellashtirish, an'anaviy va yangicha usullarining ahamiyati: GIS, AKU, kuzatish usuli va ularning natijalari. Dala tadqiqotlarida dala-ekspeditsion va statsionar tadqiqot usullari. Masofali, laboratoriya tadqiqot usullari. Landshaftlarni dalada xaritalashtirish.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va tayyorlash. Geografik muammolarni hal qilishda mantiq va matematik usullardan foydalanish imkoniyatlari. Tabiiy va tabiiy-antropogen geotizimlar, ularning dinamikasi va taraqqiyotini modellashtirish usullari. Bloklik, metrlik, grafik va matematik modellar. Tabiiy geografiyada qiyosiy uslub. Aerokosmik ma'lumotlarni tahlil qilish. Landshaftshunoslikda indikatsion usullar. Empirik qonuniyatlarni ochishda kartografik va tarixiy usullarning ahamiyati. Geotizimlar harakatini o'rganish usullari. Antropogen landshaftlar va geotexnik tizimlar harakatini o'rganish. Fanlararo tadqiqotlarni rejalashtirish va o'tkazish.

Fundamental tadqiqotlar, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va fanlararo muammolar haqidagi tushunchalar.

Geotizimlarni tadqiq qilish muammolari. Turli darajadagi geotizimlar, geografik qobiq va tabiiy hududiy komplekslar taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash. Geotizimlar farqi va harakat holatini chegaralash, geotizimlar harakati, differensiyasi va integratsiyasining fizikaviy, kimyoviy va biologik mexanizmini aniqlash. Geotizimlarning shakllanishi va taraqqiyotini aniqlash. Geotizimlar tuzilishida hozirgi xususiyat va oldingi xossalarning nisbati. Geotizimlar o'zgarishi va bashoratlash prinsiplarini ishlab chiqish usullari.

Jamiyat va tabiatining bir-biriga munosabati muammolarini tabiiy geografik jihatlar. Tabiiy komplekslarning (geotizimlarining) har xil darajadagi ta'sirlarga barqarorligi. Geokomplekslarning qaytarilishi mumkin va mumkin bo'lmagan o'zgarishi. Barqarorlikni o'rganish usullarini ishlab chiqish. Tabiiy va texnik

tizimlar o'rtasida modda va energiya almashuvi, geotizimlar chegaralarining xarakateri va evolyutsiyasidagi ahamiyati.

Tabiiy–texnik geotizimlarni o'rganish prinsiplari va usullari. Antropogen landshaftlarning klassifikatsiyasi, ularda modda va energiya almashuvi, chegaralarni aniqlash, taraqqiyotini prognoz qilish, murakkab fanlararo muammolarni tadqiq qilish usullarni ishlab chiqish, uni o'rab olgan muhit holatini tahlil qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Turli shaklda o'zlashtirilgan tabiiy sharoitlarni baholashning prinsip va usullarini ishlab chiqish. Tabiiy komplekslarga inson ta'siri oqibatlarini baholash usullarini ishlab chiqish.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zR Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr. -T.: “O'zbekiston”, 2017.

4. Abdunazarov O'.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibragimova R.A. Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiya. Darslik. -Toshkent, 2020.

5. Abdunazarov O'.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibragimova R.A. Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiya. Darslik. -Toshkent, 2019.

6. Abduvohidov S.N., G'aniyev Z.A. Geografiya ta'limi metodikasi (o'quv qo'llanma). –Samarqand, 2020.

7. Hakimov Q., Mirakmalov M.T. Toponimika. Darslik. – T.: “Tafakkur avlodi”, 2020. – 352 b.

8. Hasanov I.A., G'ulomov P.N., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Ibragimova R.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023.

9. Ibragimova R.. Jahon geografiyasi (O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi). O'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

10. Ibragimova R.. Tuproqlar geografiyasi. Darslik. – Toshkent, 2023.

11. Mamatqulov M., Egamov B.Yu.. Geologiya va geomorfologiya. Darslik. – T.: VneshInvestProm. 2019.

12. Sharipov Sh., Allaberdiyev R., Kuchkarov N., Ro'zimova X. Geoekologiya. Toshkent. Universitet, 2017.

13. Sharipov Sh.M. Geoekologiya va landshaft ekologiyasi. Darslik. – T.: Tex pro-silver. 2021. – 184 b.

14. Vahobov H. va boshqalar. Geografiya o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2020.

15. Vahobov H. va boshqalar. Geografiya o'qitish metodikasi. –T.: 2020.

16. Vaxobov X., Abdulqosimov A.A., Alimqulov N.R. Materiklar va oreatlar tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. - T.:Nodirabegim, 2021.
17. Сухоруков В.Д., Суслов В.Г. Методика обучения географии. Учебник и практикум. -М.: "Юрайт", 2023.
18. Таможняя Е.А., Смирнова М.С., Душина И.В. Методика обучения географии. Учебник и практикум. -М.: "Юрайт", 2023.
19. Хорошев А.В., Авессаломова И.А., Дьяконов К.Н. и др. Теория и методология ландшафтного планирования. Учебное пособие. -М.:2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

20. Мавлонов Г.О., Маматкулов М.М. Ўрта Осиё тоғларининг қадимги музликлари. –Т.: Фан, 1972.
21. Марков К.К. и др. Введение и физическую географию. -М.: Высшая школа, 1978.
22. Миллер Г.П. Ландшафтная география и вопросы практики. –М.: Мысль, 1967.
23. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафт. –М.: 1973.
24. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. –М.: Высшая школа, 1990.
25. Мухина Л.И. Принципы и методы технологической оценки природных комплексов. -М.: 1973.
26. Перельман А.И. Геохимия ландшафта. –М.: Недра, 1961.
27. Преображенский В.С. Поиск в географии. –М.: Наука, 1986.
28. Рябчиков А.М. Структура и динамика геосферы, её естественное развитие и изменение человеком. –М.: Мысль, 1972.
29. Сочава В.Б. Учение о геосистемах. –Новосибирск, Наука, 1975.
30. Савцова Т.М. Общее землеведение. -М.: Академия, 2003.
31. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: 2009.

Internet manbalari

1. <https://www.undp.org>
2. <https://eco.gov.uz>
3. <https://uzbgeo.uz>

11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha oliy tal'limdan keyingi ta'lim insitutiga kirish imtihonlari uchun savollar majmuasi

1. Geotizimlarning bir-biriga ta'siri va o'zaro bog'liqligi.
2. Geotizimlarning hududiy differensiatsiyasi va integratsiyasi.
3. Geografik qobiqning bir butun va har tomonlama o'rganilishi.
4. Geotizimlar dinamikasi, tabiiy komponentlarning o'zaro aloqadorligi.
5. Geotizimlardagi o'zaro ta'sir va aloqadorliklar.
6. Tabiiy geografik tadqiqot bosqichlari.
7. Tabiiy geografik tadqiqot metodlari
8. Tabiiy geografiyaning rivojlanish tarixi.
9. Tabiiy geografiyaning ob'ekti va predmeti haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va taraqqiyoti.
10. Tabiiy geografiya tizimidagi fanlarning differensiatsiyasi va integratsiyasi.
11. Kompleks tabiiy geografiya uslublarining shakllanishi va taraqqiyot tarixi.
12. Taniqli tabiiy geograf olimlar ishlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyati.
13. Tabiiy geografiyada shakllangan ilmiy maktablar.
14. Tabiiy geografiya fanlarining hozirgi strukturasi.
15. Tabiiy geografiyaning ijtimoiy, texnik va tabiiy fanlar bilan aloqasi.
16. Tabiiy geografiyada fundamental va amaliy tadqiqotlarning taraqqiyot tendensiyasi.
17. Geografik qobiq haqidagi ta'limot.
18. Geografik qobiqning hududiy differensiatsiyalanish va integratsiyalanish qonuniyatlari.
19. Geotizimlar haqidagi ta'limot.
20. "Geokompleks" va "geotizimlar" haqidagi tushunchalar.
21. Zonallik haqida ta'limot.
22. Geografik qobiqdagi zonallik qonuniyati. Turli materiklarda kenglik va gorizontal zonallikning namoyon bo'lishi.
23. Balandlik mintaqalanishi. Uning turli kenglik va materiklarda namoyon bo'lishi.
24. Geografik qobiqning hududiy va vertikal tabaqalanishida zonal va azonal omillar, ularning aloqasi.
25. Geografik qobiqning regional differensiatsiyasi (tabiiy geografik rayonlashtirish).
26. Kompleks, tarmoq, ilmiy va amaliy rayonlashtirish.
27. Landshaftlarni tasniflash qoida va prinsiplari.
28. Tekislik va tog' landshaftlarining xususiyatlari
29. Geografik qobiqda davriylik.

30. Geotizimlar va geografik qobiq haqidagi ta'limotning rivojlanishida fizik tasavvurlarning roli.
31. Grigoryev-Budikolarning davriy zonallik qonuni.
32. Modda va energiya balansida antropogen o'zgarishlar.
33. Landshaftlarning optik xususiyatlari va ularning geosistemalarni o'rganishdagi roli.
34. Geokimyoviy landshaft tushunchasi. Geokimyoviy landshaftlarning klassifikatsiyasi.
35. Geografik qobiq va geotizimlarda kimyoviy elementlarning aylanma harakati.
36. Geotizimlarda kimyoviy harakatlarning migratsion xususiyatlarini aniqlovchi omillar, migratsiyaning turlari va harakati.
37. Landshaftlar geokimyosi va tabiatni muhofaza qilish muammolari.
38. Jamiyat va tabiat munosabatlarining geografik jihatlari.
39. Jamiyat va tabiatning bir-biriga munosabatining mohiyati va mexanizmi.
40. Geotizimlarning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi.
41. Inson va uning faoliyatiga tabiatdagi o'zgarishlarning ta'siri.
42. Antropogen landshaftlar, ularni tasniflash tajribalari.
43. Landshaftlar dinamikasi.
44. Tabiiy-texnik geotizimlar (geotextizimlar).
45. Tabiiy geografik rayonlashtirish prinsiplari.
46. Landshaftlarni xaritalashtirish metodlari.
47. Tabiiy geografiyada maxsus sohaga oid zamonaviy usullar.
48. Geotizimlarni o'rganishda tizimli yondashish, modellashtirish, an'anaviy va yangicha usullarning ahamiyati.
49. Dala tadqiqotlarida dala-ekspeditsion va statsionar tadqiqot usullari.
50. Tabiiy geografik tadqiqotlarda masofali va laboratoriya usullari.
51. Landshaftlarni dalada xaritalashtirish.
52. Geografik muammolarni hal qilishda mantiq va matematik usullardan foydalanish imkoniyatlari.
53. Tabiiy va tabiiy-antropogen geotizimlar, ularning dinamikasi va taraqqiyotini modellashtirish usullari.
54. Tabiiy geografik tadqiqotlarda aerokosmik ma'lumotlarni tahlil qilish.
55. Landshaftshunoslikda indikatsion usullar.
56. Geografik qonuniyatlarni ochishda kartografik usulning ahamiyati.
57. Geotizimlar barqarorligi.
58. Antropogen landshaftlar va geotexnik tizimlar dinamikasini o'rganish.
59. Tabiiy geografiyada fanlararo tadqiqotlarni rejalashtirish va o'tkazish.
60. Fundamental tadqiqotlar, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va fanlararo muammolar haqidagi tushunchalar.

61. Geotizimlarni tadqiq qilish muammolari.
62. Geotizimlar ierarxiyasi, turli darajadagi geotizimlar.
63. Geotizimlarning chegaralari.
64. Geotizimlar dinamikasii, differensiatsiyasi va integratsiyasining fizikaviy, kimyoviy va biologik mexanizmini aniqlash.
65. Geotizimlarning shakllanishi va yoshini aniqlash.
66. Geotizimlar tuzilishida hozirgi xususiyat va oldingi xossalarining nisbati.
67. Geotizimlar taraqqiyotini prognozlash prinsiplari va usullari.
68. Landshaftlarning har xil darajadagi ta'sirlarga barqarorligi.
69. Tabiiy va texnik tizimlar o'rtasida modda va energiya almashuvi.
70. Geotizimlar chegaralarining tavsifi va evolyutsiyasidagi ahamiyati.
71. Tabiiy-texnik geotizimlarni o'rganish prinsiplari va usullari.
72. Antropogen landshaftlarning klassifikatsiyasi.
73. Tabiiy resurslarning turlari va ulardan oqilona foydalanish.
74. Tabiiy sharoitlarni baholashning prinsiplari.
75. Tabiiy sharoitni baholash usullari.
76. Geotizimlarga inson ta'siri oqibatlarini baholash usullari va mezonlari.
77. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari.
78. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid hukumat qarorlari.
79. Relyef hosil qilishda endogen jarayonlarning roli va turi.
80. O'zbekistonda shakllangan asosiy tabiiy geografik ilmiy maktablar.
81. Q.Z. Zokirov tomonidan ajralilgan balandlik mintaqalari va ularning tavsifi.
82. O'zbekistonda tabiiy geografiya-landshaftshunoslik ilmiy maktabining shakllanishi va rivojlanishi.
83. Magmatizm jarayonlari ta'sirida hosil bo'ladigan relyef shakllari.
84. O'zbekiston hududi relyefining hosil bo'lishida to'rtlamchi davri mirzacho'l va Sirdaryo komplekslari (sikllari) ning o'rni va yuzaga kelgan relyef shakllari.
85. Landshaftshunoslikdagi ilmiy yo'nalishlar va ularning mazmuni.
86. Geografik qobiqdagi sikllik va ritmiklik.
87. Tabiiy geografik rayonlashtirishning etakchi omil metodi.
88. Landshaft tipologik xaritani tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi.
89. Landshaft tushunchasining shakllanish va munozarali tomonlari.
90. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi.
91. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari.
92. Landshaft ekologiyasi yoki geoekologiya tushunchasi.
93. O'zbekiston iqlimini hosil qiluvchi asosiy omillar.

- 94.O'zbekiston relyefining shakllanish bosqichlari.
- 95.Gravitatsion tabiiy geografik jarayonlar va ularning xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
- 96.Denudatsiya jarayonlari. Denudatsion relyef shakllari.
- 97.O'zbekiston hududidagi landshaftlarning shakllanishida yangi tektonik harakatlarning roli.
- 98.Morfostrukturalar va morfoskulpturalar haqidagi ta'limot.
- 99.O'zbekistobda paleogeografik tadqiqotlar.
- 100.O'zbekiston tabiiy shaoitini xo'jalik maqsadlarida baholash tajribalari.

Fakultet dekani

A.K.Raximov

Kafedra mudiri

O.U.Abdimurotov